



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA INKLYUZIV TA'LIMNI TASHKIL ETISHNING PEDAGOGIK AHAMIYATI.

Maxmudova Muxayyoxon

*O'Zmpu Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti Maktabgacha
ta'lim yo'nalishi I-bosqich talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu tezisda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni tashkil etishning pedagogik asoslari ,uning bolalar ijtimoiylashuv jarayoniga ta'siri hamda samarali metod va vositalari tahlil qilinadi. Shuningdek, maxsus ta'lim ehtiyojiga ega bo'lgan bolalar bilan ishlash jarayonida pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari yoritiladi.*

Kalit so'zlar: *inklyuziv ta'lim, maktabgacha ta'lim, maxsus ta'lim ehtiyoji, pedagogik kompetensiya.*

Abstract: *This analyzes the pedagogical foundations of organizing inclusive education in preschool institutions, its impact on children's socialization and the effective methods and tools employed. It also addresses the development of teachers' professional competence in working with children with special educational needs.*

Keywords: *Inclusive education, preschool education, children with special educational needs, pedagogical competence.*

Hozirgi kunda inklyuziv ta'lim tizimi ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilib , uni rivojlantirish masalasiga davlat miqyosida alohida e'tibor qaratilmoqda . Inklyuziv ta'lim barcha bolalarning, jamoadan maxsus ta'lim ehtiyojiga ega bo'lgan bolalarning ham teng huquqli ravishda sifatli ta'lim olishni ta'minlashga qaratilgan pedagogik jarayondir.

Maktabgacha yosh davri shaxs rivojlanishining eng muhim va asosiy bosqichi hisoblanib , aynan ushbu davrda bolaning ijtimoiy , psixologik va kommunikativ kompetensiyalari shakllanadi . Inklyuziv ta'lim muhiti bolalarda bag'rikenglik , o'zaro hurmat , hamkorlik va ijtimoiy ma'suliyat kabi ijobiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi . Inklyuziv ta'limni samarali tashkil etish ta'lim jarayonini individual yondashuv asosida yo'lga qo'yish , pedagoglarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish hamda moslashtirilgan ta'lim dasturlaridan foydalanishni talab etadi. Pedagoglarning inklyuziv kompetensiyasi esa maxsus metodik bilimlar , psixologik yondashuv hamda differensial ta'lim texnologiyalarini qo'llay olish ko'nikmalarini o'z ichiga oladi. Mazkur kompetensiyalarni rivojlantirish malaka oshirish kurslari , seminar – treninglar va amaliy tajriba almashinuvi orqali ta'minlanadi.

Bundan tashqari , o'yin texnologiyalari , art-terapiya , rivojlantiruvchi mashg'ulotlar hamda interaktiv metodlar maxsus ehtiyojli bolalarning ijtimoiy moslashuvini ta'minlashda muhim pedagogik vosita sifatida xizmat qiladi.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Xulosa qilib aytganda , maktabgacha ta’lim tizimida inklyuziv yondashuvni izchil joriy etish har bir bolaning individual imkoniyatlarini ro’yobga chiqarish hamda uning har tomonlama rivojlanishini ta’minlashning muhim omili hisoblanadi. Inklyuziv ta’lim maxsus ehtiyojli bolalarning ijtimoiy integratsiyasini ta’minlash bilan birga , barcha tarbiyalanuvchilarda insonparvarlik , bag’rikenglik va tolerantlik qadriyatlarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1 O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to’g’risida”gi Qonun-Toshkent 2020.
- 2 O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirishga oid qarorlar-Toshkent ,2019-2022.
- 3 O‘zbekiston Respublikasi . Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo’yiladigan davlat talablari-Toshkent ,2020.
- 4 Toshkent shahar Ta’lim boshqarmasi.Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida inklyuziv ta’limni tashkil etish bo’yicha metodik qo’llanma-Toshkent,2021.
- 5 Xasanboyeva.O.U. Maktabgacha pedagogika –Toshkent :Fan va Texnologiya,2018
- 6 Karimova V.M Pedagogik kompetentlik asoslari-Toshkent .O’qituvchi, 2017

